SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.08/2025.27.12.V.11.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETINING
TOSHKENT FILIALI

MAXSUDOV UMIDJON TURAXONOVICH

BUZOQLARDA MINERAL MODDALAR ALMASHINUVI BUZULISHLARINING OLDINI OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH

16.00.01 - Hayvonlar kasalliklari diagnostikasi, terapiyasi va xirurgiyasi

VETERINARIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

UDK: 616:612.015.31

Veterinariya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по ветеринарным наукам

Content of the abstract of doctoral dissertation (PhD) on veterinary sciences

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.08/2025.27.12.V.11.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI TOSHKENT FILIALI

MAXSUDOV UMIDJON TURAXONOVICH

BUZOQLARDA MINERAL MODDALAR ALMASHINUVI BUZULISHLARINING OLDINI OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH

16.00.01 - Hayvonlar kasalliklari diagnostikasi, terapiyasi va xirurgiyasi

VETERINARIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/V103 raqam bilan roʻyxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filialida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (oʻzbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.ssuv.uz) va «ZiyoNet» axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Eshburiyev Sobir Baxtiyorovich** veterinariya fanlari doktori, dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Bakirov Baxtiyar** veterinariya fanlari doktori, professor
	Mamatov Shavkat Sodiqovich veterinariya fanlari nomzodi
Yetakchi tashkilot:	**Veterinariya ilmiy - tadqiqot instituti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12.V.11.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "28" 02, soat 13⁰⁰ dagi majlisida boʻlib oʻtadi. (Manzil: 140103, Samarqand shahri, M.Ulugʻbek koʻchasi, 77-uy. Tel./faks: (+99855) 707-76-86; e-mail: ssuv@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (14355 raqami bilan roʻyxatga olingan). (Manzil: 140103, Samarqand shahri, M.Ulugʻbek koʻchasi, 77-uy. Tel./faks: (+99855) 707-76-86.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «28» 02 kuni tarqatildi.

(2026-yil «14» 02 dagi № 07 - raqamli reystr bayonnomasi)

X.B.Yunusov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, b.f.d., professor

K.Uraqov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, v.f.b.f.d (PhD)

Q.N.Norboyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi
ilmiy seminar raisi, vet. f. d., professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyoda chorvachilikning asosiy tarmog'i hisoblangan qoramolchilikni jadal rivojlantirish, aholini sifatli va arzon go'sht, sut kabi mahsulotlar bilan ta'minlash dolzarb masalalarga aylanib bormoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun qoramollar bosh sonini oshirish, kasalliklarga chidamli mahsuldor hayvonlar podasini yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda. «Yosh hayvonlarning 14,3%da subklinik, 52,4%da klinik shakldagi kalsiy-fosfor almashinuvi buzilishi, oxirgi dum umutrqalari va qovurg'alar osteolizisi, tishlarning qimirlashi, tuyoqlar yaltiroqligining pasayishi kuzatilib»[1] qoramolchilik fermer xo'jaliklariga katta iqtisodiy zarar olib kelmoqda. Iqtisodiy zarar buzoqlarning o'sish va rivojlanishdan qolishi, kelgusida podani to'ldirishga yaroqsiz bo'lishi, kasalliklarga chidamliligining pasayishi oqibatida kelib chiqadi. Ushbu patologiyalarning oldini olish, xo'jaliklarga keladigan iqtisodiy zararlarni keskin kamaytirish, mahsulot tannarxini pasaytirish uchun buzoqlarni o'stirish yoshida to'yimli ratsion asosida oziqlantirish talab etiladi. Buzoqlarda kuzatiladigan minerallar almashinuvi buzilishlarini barvaqt aniqlash orqali guruhli usulda samarali profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish veterinariya amaliyoti oldida turgan dolzarb vazifalardan sanaladi.

Dunyo mamlakatlarining qoramolchilik xo'jaliklaridagi buzoqlarning minerallar almashinuvi buzilishlarining asosiy etiologiyasi ularning 3-4 oyligida «ayrim biogeokimyoviy hududlarda oziqalar tarkibidagi misni 0,5mg (36%), kobaltning 0,34 mg (30,9%) ga kam ekanligi aniqlangan»[2]. Shu boisdan o'stirish yoshidagi buzoqlar organizmining ehtiyojlarini inobatga olib, oziqa ratsionini minerallar va vitaminlar bilan boyitish orqali ushbu patologiyani guruhli oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqishga bag'ishlanlgan tadqiqotlar olib borish bugungi kunda veterinariya ilm-fani oldidagi o'z yechimini kutayotgan masalalardan hisoblanadi.

Respublikamizda qoramolchilikni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohatlar natijasida zotli hayvonlar soni ko'payib, mahsuldorligi va pushtdorligi oshib bormoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022-2026 yillarga mo'ljallangan dasturda qoramolchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish, zotli qoramollarni chetdan keltirib parvarishlash, sifatli va arzon go'sht va sut mahsulotlarini ishlab chiqish kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu dolzarb vazifalarni samarali bajarish uchun buzoqlarning mineral moddalar almashinuvi buzilishi kasalliklari katta to'siqlardan biri bo'lmoqda. Buzoqlarning mineral almashinuvi buzilishi oqibatida tabiiy rezistentlikning pasayishi, o'sish va rivojlanishdan qolishi kabi salbiy holatlar uchramoqda. Shu boisdan, buzoqlar kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishi kasalliklariga tez beriluvchan bo'lishi va

---

[1]Исмагилова, Э.Р. Клинико-морфологические проявления, прогнозирование и коррекция нарушений минерального обмена у животных. Автореферат дисс. . . докт. вет. наук. УФА, 2006. - 35с.

[2] Малкина С.Б. Нарушение белково-минерального обмена у телят при марганцевой недостаточности: Автореф. дисс. ... канд. вет. наук. Барнаул., 2002. - 18 с.

majburiy so'yilishi evaziga katta iqtisodiy zararga sabab bo'lmoqda. Buzoqlarda uchraydigan minerallar almashinuvi buzilishlarining tarqalishi, iqtisodiy zarari, etiologiyasini o'rganish, barvaqt diagnostika va guruhli profilaktika qilishning yuqori samarador usullarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish veterinariya sohasidagi dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Ushbu dissertatsiya tadqiqotlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi[3] farmoni, 2020-yil 29-yanvardagi PQ-4576-sonli «Chorvachilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi va 2022-yil 8-fevraldagi PQ-121-son «Chorvachilikni yanada rivojlantirish va ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2022-yil 31-martdagi PQ-187-son «Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida»gi, 2022-yil 8-fevraldagi PQ-120-son «O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022-2026-yillarga mo'ljallangan dasturni tasdiqlash to'g'risida»gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishlari doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Buzoqlarning mineral modda almashinuvi buzilishi kasalliklarining tarqalishi, etiologiyasi, patogenezini o'rganish va oldini olish usullarini ishlab chiqish bo'yicha xorijiy olimlardan A.В.Борщевский, Э.Р.Исмагилова, Л.Н.Комарова, И.П.Кондрахин, М.А.Костына, Ю.Н.Кондратев, Малкина С.Б., Е.И.Машкина, Р.А.Мерзленко, Г.Н.Михайлова, А.Г.Сапунов, Е.С.Степаненко, В.Т.Самохин, В.А.Сафонов, А.Г.Нежданов, М.И.Рецкий, В.И. Шушлебин, Е.В.Наздрачева, М.И.Немченко kabi olimlar tomonidan keng qamrovli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan va ilmiy-amaliy natijalarga erishilgan.

Respublikamiz olimlaridan hayvonlarda vitamin-mineral modda almashinuvi buzilishi kasalliklarini diagnostika qilish va oldini olish chora-tadbirlari bo'yicha X.Z.Ibragimov, M.S.Xabiyev, M.B.Safarov, Q.N.Norboyev A.J.Raxmonov, B.B.Bakirov, B.M.Eshburiyev va S.B.Eshburiyevlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ammo o'stirish yoshidagi buzoqlarda mineral moddalar almashinuvi buzilishi kasalliklarini aniqlash, samarali profilaktika qilish bo'yicha tadqiqotlar yetarlicha o'tkazilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqotlari Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filialining qoramolchilik xo'jaliklari bilan

---

[3] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi[3] farmoni

hamkorlikda tuzilgan xo'jalik shartnomalari (Shartnoma №22. 10.10.2024y.) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Toshkent viloyatining qoramolchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari sharoitidagi buzoqlarda mineral moddalar almashinuvi buzilishlarining sabablari, gematologik o'zgarishlar, klinik belgilarini o'rganish hamda guruhli profilaktika qilish usullarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Simmental va golshtin zotli buzoqlarda mineral modda almashinuvi buzilishlarini uchrash darajasi, xo'jaliklarga olib keladigan iqtisodiy zararini tahlil qilish;

dispanserlash asosida bo'g'oz sigirlar va ulardan tug'iladigan buzoqlarning modda almashinuvi darajasini aniqlash;

buzoqlarda minerallar almashinuvi buzilishining etiologiyasi, simptom va sindromlarini o'rganish;

buzoqlarda minerallar almashinuvi buzilishi paytida kuzatiladigan gematologik o'zgarishlarni aniqlash;

buzoqlarda minerallar almashinuvi buzilishlarini guruhli profilaktika qilishning samarali usullarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida Toshkent viloyatining qoramolchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari sharoitidagi simmental va golshtin zotli buzoqlar, qon va sut namunalari, oziqa namunalari Novamix va Ronomix vitamin mineralli premikslari olingan.

Tadqiqotning predmeti tajriba hayvonlarining klinik, gematologik ko'rsatkichlari, sut tarkibining biokimyoviy ko'rsatkichlari, buzoqlarning tana vazni, ratsion tarkibi va to'yimliligi tahlili hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Ilmiy-tadqiqotlarni bajarishda klinik, gematologik, biokimyoviy, refraktometrik, oziqa namunalarini zootexnikaviy tahlil qilish va matematik-statistik usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

buzoqlarda mineral modda almashinuvi buzilishlari 3 oylikkacha sut tarkibidagi mineral moddalarning yetishmasligi, 6 oylikkacha ratsiondagi hazmlanuvchi proteinning 48 g, karotinni 13 mg, fosforni 3,5 g kamligi va kalsiyni 8,0 g ortiqchaligidan kelib chiqishi ilmiy asoslangan;

buzoqlarda mineral moddalar almashinuvi buzilishlari shilliq pardalarning oqarishi, kesuvchi tishlarning qimirlashi va qiyshayishi, kam harakatlanish (gipodinamiya), teri elastikligi va teri qoplamasi yaltiroqligining pasayishi, ishtahaning o'zgarishi (lizuxa) kabi simptomlar bilan kechishi aniqlangan;

buzoqlarning mineral moddalar almashinuvi buzilishlarida meyorga nisbatan qondagi gemoglobin miqdorining o'rtacha 16,6 g/l ga, umumiy oqsilni 16,7 g/l ga, umumiy kalsiyni 1,23 mmol/l, anorganik fosfor 0,34 mmol/l, temir 0,5 mkmol/l, va magniyni 0,43 mmol/l ga kamayishi, ishqoriy fosfataza faolligining 0,62 mkmol.s/l ga ortishi tajribalarda isbotlangan;

buzoqlarda minerallar almashinuvi buzilishlarini profilaktika qilish uchun Ronomix vitamin mineralli premiksidan kuniga 75 g (1-oylikgacha 35 gr) sut bilan qo'shib berish usuli joriy etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

buzoqlarda mineral moddalar almashinuvi buzilishlarining kelib chiqishida sigirlarning bo'g'ozlik davridagi modda almashinuvi buzilishlari va tug'ishdan keyingi davrda ular sutining tarkibidagi kalsiy va fosforni o'rtacha 2,0 mg, magniyni 1,0 mg.ga kam bo'lishi bilan bog'liqligi aniqlangan;

minerallar almashinuvining buzulishlari buzoqlarning 1-2-oylik davrida 3-6 foizida, 3-4-oylikda 8-12 foizida va 5-6-oyligida 14-18 foizida kuzatilishi tadqiqotlarda aniqlangan;

sigirlarning bo'g'ozlik davrida (8-9 oylik) Ronomiks vitaminli va mineralli premiksidan kuniga 150 grammdan omuxta yemga qo'shib berish usuli joriy etilgan va shu orqali buzoqlar orasida minerallar almshinuvi buzilishi kasalliklarini 30-40 foizgacha kamaytirishga erishilgan;

minerallar almashinuvi buzilishlarini guruhli profilaktika qilish uchun buzoqlarning 10 kunligidan boshlab Ronomix vitamin-mineralli premiksidan 75 g (1-oylikgacha 35 gr) sutga aralashtirilgan holda berish ularda tana vaznining nazoratga nisbatan o 'rtacha 11,6 kg.ga yuqori bo'lishi tajribalarda aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ilmiy tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishning zamonaviy yangi usullardan foydalangan holda o'tkazilganligi, klinik, biokimyoviy uslublardan foydalanilganligi va raqamli ma'lumotlarga matematik, statistik ishlov berilganligi, shuningdek, olingan nazariy natijalarning tajriba ma'lumotlari bilan to'g'ri kelishi, tadqiqot natijalarining xorijiy va mahalliy tajribalar bilan taqqoslanganligi, ishning xo'jalik shartnomalari doirasida bajarilganligi, shuningdek, laboratoriya va ishlab chiqarish tajribalarining dalolatnomalarga asoslanganligi, olingan natijalarning mutaxassislar tomonidan tasdiqlab ijobiy baholanganligi bilan isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati buzoqlarda minerallar almashinuvi buzilishining etiologiyasi va kechish xususiyatlarining aniqlanganligi, patologiyaning asosan buzoqlarni sutdan ayirish davrigacha rivojlanishi, kasallik paytidagi klinik va gematologik ko'rsarkichlardagi o'zgarishlarning aniqlanganligi, buzoqlarning uviz sutiga vitamin-mineralli premikslarni qo'shib berish orqali ularni o'sish va rivojlanishini yaxshilash, kasallikni oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati buzoqlarni minerallar almashinuvi buzilishlarini diagnostika qilishni bo'g'oz sigirlarda 8-9 oylik davrida dispanserlash o'tkazish bilan boshlash mumkinligi, sigirlarning tug'ishigacha Ronomix vitaminli va mineralli premiksidan kuniga bir marta 150 gr ratsioniga qo'shib berilishi natijasida buzoqlarni sog'lom tug'ilishini ta'minlashi, buzoqlarni o'stirish davrida Ronomix vitaminli va mineralli premiksidan sutiga 75 gramm (1-oylikgacha 35 gr)dan qo'shib berish orqali ular organizmida mineral moddalar almashinuvini stimullash, ularda klinik, gematologik ko'rsatkichlarning me'yorlar darajasida yaxshilanishi orqali kasallikni oldini olishga erishilganligi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Buzoqlarda mineral moddalar almashinuvi buzulishlarining oldini olishni takomillashtirish bo'yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqot natijalari asosida:

"Buzoqlarda mineral moddalar almashinuvi buzilishlarining etiologiyasi va profilaktikasi" bo'yicha tavsiyanoma ishlab chiqilgan va veterinariya amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2025 yil 17-sentabrdagi № 02/23-845 sonli ma'lumotnomasi). Natijada buzoqlarning mineral moddalar almashinuvi buzilishlarining sabablari, klinik belgilarini aniqlash orqali kasallikni ertachi diagnostika hamda profilaktika qilishga erishilgan;

Buzoqlarning mineral moddalar almashinuvi buzilishlarini profilaktika qilish maqsadida sigirlarning bo'g'ozlik davrida (8-9 oylik) Ronomiks vitaminli va mineralli premiksidan kuniga 150 g, buzoqlarni sut davridan boshlab Ronomiks vitaminli va mineralli premiksidan ichadigan sutiga 75 gramm (1-oylikgacha 35 gr)dan qo'shib berish usulu joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 17 noyabr 2025 yildagi №02/23-845 son ma'lumotnomasi). Natijada buzoqlar organizmining klinik-fiziologik ko'rsatkichlarini me'yorda bo'lishi hamda minerallar almashinuvi buzilishi kasalliklarini 30-40 foizgacha kamaytirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur dissertatsiya natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, ularning 2 tasi Respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda, 3 ta xalqaro va 3 ta Respublika ilmiy konferensiya materiallari to'plamlarida nashr etilgan. 1 ta tavsiyanoma chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 118 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning «**Kirish**» qismida tadqiqotlar mavzusining dolzarbligi va zaruriyati, mavzuning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, tadqiqotning obyekti va predmetlari, tadqiqotning usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi va aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning «**Adabiyot ma'lumotlarining tahlili**» deb nomlangan birinchi bob uch qismga bo'lingan bo'lib, uning birinchi «Buzoqlar organizmida mineral moddalarning ahamiyati» deb nomlangan qismida minerallarni buzoqlar organizimidagi o'rni, vazifalari buzoqlarda minerallar almashinuvi jarayonining kechishi hamda buzoqlarning mineral moddalarga bo'lgan talablari haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan. «Buzoqlarda minerallar almashinuvi buzulishlarining etiologiyasi, diagnostikasi va simptomlari» deb nomlangan ikkinchi qismida buzoqlarda minerallar almashinuvi buzilishlarini keltirib chiqaradigan omillar, ushbu patologiyalar natijasida kelib chiqadigan belgilar va minerallar almashinuvi buzilishining buzoqlar organizimida kechish xususiyatlari keltirilgan. «Buzoqlarda minerallar almashinuvi buzulishlarini oldini olish usullari» deb nomlangan uchinchi qismida buzoqlarda minerallar almashinuvi buzilishlarini davolash va oldini olish usullari to'g'risidagi Respublikamiz va xorijiy olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalari bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **«Tadqiqot joyi, obyekti va usullari»** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotlar joyi, obyekti hamda usullari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Ilmiy tadqiqotlar 2022-2025 yillar davomida Toshkent viloyati Parkent tumanidagi Bo'ston MFY da joylashgan «Hikmatov Bunyod» MChJda hamda Yuqori Chirchiq tumanidagi «Xayrullo Boboyorov» MChJga qarashli qoramolchilik xo'jaliklarida bajarilgan.

Tadqiqotlarda «Xayrullo Boboyorov» MChJ va «Hikmatov Bunyod» MChJ qoramolchilik xo'jaliklariga qarashli turli yoshdagi 8-9-oylik bo'g'oz sigirlarda va 1-6-oylik buzoqlarda dispanser tekshirishlar o'tkazilib, saqlash va oziqlantirish sharoitlari tahlil qilindi, buzoqlarga beriladigan sutning kimyoviy tarkibi, buzoqlarning tirik vazni, klinik va qonning biokimyoviy ko'rsatkichlari aniqlandi.

Laborator tekshirishlari Toshkent shahar Chilonzor tumanidagi "BIOQON" veterinariya diagnostikasi laboratoriyasida BioSistem BA200 rusumli to'liq avtomatik analizatorida qonning biokimyoviy tahlillari o'tkazildi.

Sutning biokimyoviy tarkibini tahlil qilish va meyoriy ko'rsatkichlari bilan taqqoslashda Г.В.Твердохлеб va Р.И.Романаускас (Химия и физика молока и молочных продуктов. -М.: ДеЛи принт 2006. -360 с.)larni qo'llanmasidan foydalanildi.

Simmental va golshtein zotdagi buzoqlarda minerallar almashinuvi buzilishlarining etiopatogenezi, kelib chiqish sabablarini, klinik belgilarini o'rganish va oldini olish chora tadbirlarini ishlab chiqishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar o'tkazildi. Tajribalar davomida buzoqlar qonidagi gemoglobin, glyukoza Contour plus markali glyukometr yordamida, qon zardobida umumiy oqsil (Refraktometrik usul), umumiy kalsiy, anorganik fosfor miqdorlari aniqlandi.

Oziqalar tarkibining to'yimliligi bo'yicha Respublika hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari havfsizligi davlat markazida tekshirildi. Oziqalar tarkibining to'yimliligi meyorlar bilan taqqoslab tahlil qilindi. Bunda B. Yaxyayev, K. Xaydarov. «Havvonlarni oziqlantirish» fanidan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari (-T.: «Fan va texnologiya», 2019, 336 bet.) deb nomlangan o'quv qo'llanmadan foydalanildi.

Tajribadagi buzoqlarni klinik tekshirishlardan o'tkazish orqali ishtahasi, umumiy holat, ko'z shilliq pardalari, teri, teri qoplamasi holati, harakat a'zolarining holati, kesuvchi tishlarning qimirlashi, 1 daqiqadagi yurak urishi va nafas soni, tana harorati °C tekshirildi. Ilmiy tadqiqot ishlarining iqtisodiy samaradorligini aniqlashda «Veterinariya ishini tashkil etish va ining iqtisodi» deb nomlangan (Davlatov R.B., Norqobilov B.T., Qurbonov Sh.X.. 2019) darslikdan foydalanildi. Ilmiy tadqiqotlar natijasida olingan barcha raqamli ma'lumotlar E.K.Merkureva usuli bo'yicha matematik ishlovdan o'tkazilib, Stydent Fisher mezonlari bo'yicha ishonchlilik darajasi (P) aniqlandi.

Dissertatsiyaning uchinchi **«Dispanser tekshirish natijalari»** deb nomlangan bobida 8-9-oylik bo'g'oz sigirlarda va 1-6-oylik buzoqlarda dispanser tekshirishlar natijalari bayon etilgan.

Ushbu bobning «Bo'g'oz sigirlarda minerallar almashinuvi buzulishlarining monitoring natijasi» deb nomlangan bo'limida sigirlarda mineral moddalar almashinuvi buzilishlarining klinik belgilari va kechish xususiyatlarini o'rganish natijalari berilgan. Toshkent viloyati Parkent tumanidagi Bo'ston MFY da joylashgan «Hikmatov Bunyod» MChJda simmental zotli va Yuqori Chirchiq tumanidagi «Xayrullo Boboyorov» MChJdagi Golshtein friz zotli sutdan chiqarilgan 8-9 oylik bo'g'oz sigirlardan 101 boshida, ushbu xo 'jaliklardagi 1-6 oylik buzoqlarning 222 boshida dispanser tekshirishlar o'tkazildi.

Har ikkala xo'jalikda ham sigirlar yilning barcha fasllarida asosan bir joyda saqlanadi, faol matsion yetishmaydi. Shuning uchun sigirlarda poda sindromatikasi mikroelementozlar, surunkali ketoz, ikkilamchi osteodistrofiya, tug'ruqdan keyingi falaj, yo'ldoshni ushlanib qolishi, alimentar anemiya, buzoqlarda dispepsiya, A va D-gipovitaminozlar kabi yuqumsiz xarakterdagi kasalliklar ko'p qayd etilishi bilan tavsiflandi.

Qish va erta bahor oylarida dispanser tadqiqotlar o'tkazilgan «Hikmatov Bunyod» MChJdagi 50-60% sigirlarning 8-9 oylik bo'g'ozlik davrida shilliq pardalarning oqarishi, ishtahaning o'zgarishi (lizuxa), 45-55% da teri va shilliq pardalarning quruqlashishi, teri elastikligining pasayishi, teri qoplamasining hurpayishi, yaltiroqligining pasayishi va sinuvchan bo'lishi, alopesiya, kon'yunktivitlar, kseroftalmiya (ko'zning quruqlashishi) kuzatildi. 40-45%da kalsiy va fosfor almashinuvi yetishmovchiligi belgilaridan kesuvchi tishlarning qimirlashi, lordoz holati, suyaklarning deformatsiyasi qayd qilindi.

«Xayrullo Boboyorov» MChJdagi Golshtein friz zotli sigirlarning bo'g'ozlik davrida 45-50% da shilliq pardalarning oqarishi, ishtahaning o'zgarishi, 30-40% da terining burma holatiga kelishi, quruqlashishi, elastikligining pasayishi terida qazg'oq va toshmalar hosil bo'lishi, teri qoplamasi yaltiroqligining pasayishi, dag'allashishi hamda ko'zdan yosh oqishi kabi magniy, kobalt, yod, rux yetishmasligi belgilari kuzatildi. Marganes yetishmovchiligi belgilaridan bo'g'inlarning kattalashishi va deformatsiyasi hamda tilni chiqarib o'ynatish va spiralsimon burash simptomlari xarakterli bo'ldi.

Sigirlarda qondagi morfobiokimyoviy o'zgarishlarni o'rganish maqsadida "Hikmatov Bunyod" MCHJ dagi bo'g'oz sigirlardan o'xshash juftliklar tamoyili asosida 15 bosh ajratildi. Sigirlar qonidagi gemoglobin miqdori bo'g'ozlikning 8-oyida o'rtacha (me'yor 99-129 g/l) 98,2±3,2 g/l, glyukoza o'rtacha (me'yor 2,22-3,33 mmol/l) 2,18±0,21 mmol/l, qon zardobidagi umumiy oqsil miqdori fiziologik me'yorlar (me'yor- 72-86 g/l) chegarasida bo'lib, o'rtacha 84,3±2,06 g/l, ishqoriy zahira miqdori o'rtacha 46,8±2,1 hajm%CO_2 ni, ishqoriy fosfotaza fermentining faolligi o'rtacha 1,56±0,32 mkmol.s/l, ni tashkil etdi.

Sigirlar qonidagi gemoglobin miqdori bo'g'ozlikning 9- oyida o'rtacha (me'yor 99-129 g/l) 99,6±1,2 g/l, glyukozaning miqdori o'rtacha 2,21±0,18 mmol/l, qon zardobidagi umumiy oqsil miqdori fiziologik me'yorlar chegarasida bo'lib, o'rtacha 84,2±1,78 g/l, ishqoriy zahira miqdori o'rtacha 47,1±2,4 hajm%CO_2 ni, ishqoriy fosfotaza fermentining faolligining o'rtacha 1,58±0,24 mkmol.s/l, ni tashkil etishi tekshirishlar natijasida qayd qilindi.

Ushbu bobning «Buzoqlarni oziqlantirishning tahlil natijalari» deb nomlangan qismida 4-5 va 6-8 oylik buzoqlar ratsionining to'yimliligi bo'yicha tahlil natijalari bayon etilgan. «Xayrulla Boboyorov» MChJdagi 4-5 oylik buzoqlar organizmining ehtiyojlarini qondirilishi hazmlanuvchi proteinga nisbatan – 85,8%, qand – 42,67%, karotin – 84,7%, kalsiy – 126,6%, fosfor – 76,6% va kletchatkaga nisbatan 121,1 foizni tashkil etdi. Buzoqlar ratsionidagi qand-oqsil nisbati -0,44; fosfor-kalsiy nisbati - 0,30 ni tashkil etdi.

"Xikmatov Bunyod" MCHJ fermer xo'jaligidagi 6-8 oylik buzoqlar ratsionining tahliliga ko'ra silos-senaj tipida ekanligi aniqlandi. Oziqlantirish me'yorlariga solishtirilganda ratsion to'yimligining 0,91 oziq birligiga kamligi, hazmlanuvchi proteinning 68,0 g, qandning - 178 g, karotinning – 80,1mg, fosforning - 7,36 grammga tanqisligi va kalsiyning – 7,6 g va kletchatkaning 741 grammga ortiqchaligi aniqlandi. Buzoqlar organizmi ehtiyojlarining qondirilishi to'yimli moddalarga nisbatan 71,2 foizni, hazmlanuvchi protein - 83,8%, qand - 47,6%, karotin - 57,8%, kalsiy - 121,7%, fosfor - 81,6% va kletchatkaga nisbatan 167,7 foizni tashkil etdi. Ratsionning uglevodli qismi qandni tanqisligi va kletchatkaning oziqlantirish me'yorlariga nisbatan ortiqchaligi bilan taavsiflandi. Shuningdek, oqsilli va energetik qismlarining ham bir-biriga nomutanosibligi aniqlandi, ya'ni ratsiondagi qand-protein nisbati 0,8-1,5:1 o'rniga 0,46 ni tashkil etdi.

Ratsionning makroelementli qismi kalsiyning ortiqchaligi va fosforning tanqisligi oqibatida ular o'zaro nisbatlarining nomutanosibligi bilan xarakterlandi. Fosforning kalsiyga nisbati 0,76 ni (me'yor - 2,0:1) tashkil etdi. Buzoqlar ratsionidagi ushbu nomutanosibliklar oziqalarning hazmlanish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatib, ular organizmida moddalar almashinuvining buzilishi, ularda o'sish va rivojlanishning kechikishiga olib keladi.

Dissertatsiyaning «Buzoqlarga beriladigan sutning kimyoviy tarkibini tekshirish natijalari» deb nomlangan bo'limida buzoqlarga beriladigan sutning biokimyoviy ko'rsatkichlarini tekshirish natijalari bayon etilgan. Sigirlardan olingan sut namunalarini laborator tekshirish natijalariga ko'ra sut yog'i 1,3 foizga, oqsillar 0,3 foizga ko'pligi aniqlangan bo'lsa, laktoza (sut shakari) 0,1 foizga va minerallar esa 0,2 foizga kamligi aniqlandi.

Buzoqlarga beriladigan sutining tarkibida minerallar miqdori o'rganib tahlil qilinganda 100 ml sut tarkibidagi meyyorga nisbatan kalsiyni 2 mg ga, fosforni 2 mg ga, magniyni 1 mg ga, kaliyni 2 mg ga temirni 0,01 mg ga va ruxni 0,01 mg ga kamligi aniqlandi. Sigirlar suti tarkibidagi mikroelementlar miqdori laktatsiyaning 1- oyida fiziologik me'yorlardan kam ekanligi bilan xarakterlandi.

Buzoqlarga beriladigan sutning tarkibidagi vitaminlarning ko'rsatkichlari tahlil qilinganda A vitamin 0,02 mg ga, D vitamin 0,01 mg ga, C vitamin 0,2 mg ga, B_3 vitaminni 0,02 mg ga va B_{12} vitamini 0,0001 mg ga meyyorga nisbatan kam ekanligi laborator tekshirishlar orqali aniqlandi.

Dissertatsiyaning «Buzoqlarda minerallar almashinuvi buzilishlarining monitoring natijalari» deb nomlangan bo'limida buzoqlarda minerallar almashinuvi buzilishlarining tarqalish darajasini o'rganish natijalari keltirilgan. Tadqiqotlar ikki bosqichda amalga oshirilib birinchi bosqich kuz-qish fasllarida, ikkinchi bosqich bahor-yoz fasllarida amalga oshirilib, buning uchun "Xikmatov Bunyod" MCHJ fermer xo'jaligidagi simmental zotli buzoqlardan etalon guruhlar ajratilib, ularning 1-2-oylik (43 bosh), 3-4-oylik (37 bosh) va 5-6-oyliklarida (47 bosh) klinik-fiziologik, tekshirishlar, har guruhdan 5 boshida gematologik ko'rsatkichlar bo'yicha tekshirishdan o'tkazildi.

Buzoqlarda klinik tekshirishlar orqali 1-2-oyliklarning 3-6 foizida, 2-3-oyliklarning 8-12 foizida hamda 5-oylikdan yuqori yoshdagi buzoqlarning 14-18 foizida shilliq pardalarning oqarishi, kam harakatlanish (gipodinamiya), tashqi ta'sirlarga javob reaksiyasining pasayishi, teri elastikligining pasayishi, teri qoplamasining hurpayishi, yaltiroqligining pasayishi, buzoqlarni bir-birini va ozuqa oxuolarini ham yalash (lizuxa) belgilari yaqqol namoyon bo'lganligi xarakterli bo'ldi. Tekshirilgan buzoqlarda minerallar almashinuvi buzilishlariga xos klinik belgilar borligi qayd qilindi.

1-jadval.

Buzoqlar qonining biokimyoviy ko'rsatkichlari (n=5)

Buzoqlar yoshi	Umumiy oqsil (g/l)	Gemoglobin (g/l)	Glyukoza (mmol/l)	Umumiy kalsiy (mmol/l)	Anorganik fosfor (mmol/l)	Ishqoriy fosfataza faolligi (mkmol.s/l)	Temir (mkmol/l)	Magniy (mmol/l)
Meyorda	72-86	99-129	2,22-,88	2,5-3,13	1,45-,94	0,4-1,4	16,1-19,7	0,82-1,23
1-2-oylik buzoqlar	78,3±1,2	88,4±1,4	2,5±0,1	2,4±0,2	1,6±0,1	1,52±0,02	19,2±1,1	0,8±0,02
3-4-oylik buzoqlar	72,6±1,1	86,9±1,3	2,1±0,1	2,1±0,3	1,4±0,2	1,57±0.03	16,2±1,3	0,6±0,02
5-6-oylik buzoqlar	68,2±1,2	86,5±1,1	2,2±0,3	1,9±0,2	1,2±0,3	1,61±0,01	16,2±1,2	0,7±0,01

Bir ikki oylik buzoqlarda qondagi umumiy oqsil o'rtacha 78,3±1,2 g/l, gemoglabin 88,4±1,4 g/l, glyukoza 2,5±0,1 mmol/l, umumiy kalsiy 2,4±0,2 mmol/l, anorganik fosfor 1,6±0,1 mmol/l, ishqoriy fosfataza faolligi 1,52±0,02 mkmol.s/l, temir 19,2±1,1 mkmol/l va magniy 0,8±0,02 mmol/l ni, uch to'rt oylik buzoqlarda umumiy oqsil o'rtacha 72,6±1,1 g/l, gemoglabin 86,9±1,3 g/l, glyukoza

2,1±0,1 mmol/l, umumiy kalsiy 2,1±0,3 mmol/l, anorganik fosfor 1,4±0,2 mmol/l, ishqoriy fosfataza faolligi 1,57±0,03 mkmol.s/l, temir 16,2±1,3 mkmol/l va magniy 0,6±0,02 mmol/l ni tashkil qilishi aniqlandi.

Besh olti oylik buzoqlardan olingan qon namunalarida o'rtacha umumiy oqsil 68,2±1,2 g/l, gemoglabin 86,5±1,1 g/l, glyukoza 2,2±0,3 mmol/l, umumiy kalsiy 1,9±0,2 mmol/l, anorganik fosfor 1,2±0,3 mmol/l, ishqoriy fosfataza faolligi 1,61±0,01 mkmol.s/l, temir 16,2±1,2 mkmol/l va magniy 0,7±0,01 mmol/l ni tashkil qilishi aniqlandi. Buzoqlar yoshining kattalashishi bilan birga ularning mineral moddalarga bo'lgan talabining ortishi, sutdan ayrilib dag'al ozuqaga o'tishi orqali ularda minerallarning yetishmasligi yaqqolroq namoyon bo'lishi aniqlandi.

Buzoqlarda minerallar yetishmovchiligi qondagi gemoglobin, glyukoza, temir, magniy va umumiy oqsil miqdorlarining kamayishi bilan, ishqoriy fosfataza faolligining oshishi bilan kechishi aniqlandi.

Dissertatsiyaning to'rtinchi «**Buzoqlarda minerallar almashinuvi buzulishlarini profilaktika qilish tajribalari**» deb nomlangan bobida buzoqlarda mineral moddalar almashinuvi buzilishlarini oldini olish usullarini ishlab chiqishga doir tajribalar natijasi bayon etilgan. Birinchi bosqich tajribalar bo'g'oz sigirlar va buzoqlarda minerallar almashinuvi buzilishlarini guruhli profilaktika qilish vositalarini tanlash va ularni hayvonlar organizmiga ta'sirini aniqlash maqsadida o'tkazildi. Tajribalar uchun jami 45 bosh 10-kunlik buzoqlardan analoglar qoidasiga asosan har birida 15 boshdan bo'lgan uchta guruh tashkil etildi. 1-guruhdagi buzoqlarning sutiga+Ronomix premiksidan kuniga 75 g (1 oylikgacha 35 g dan) miqdorda qo'shib berildi, 2-guruhdagi buzoqlarga xo'jalik ratsioniga Novamix premiksidan kuniga o'rtacha 35 g (1 oylikgacha 20 g dan) miqdorda qo'shib berildi, 3-guruh nazoratdagi buzoqlar xo'jalik ratsioni bilan oziqlantirildi. Tajribalar 90 kun davom ettirilib tekshirishlar har 30 kunda bir marta amalga oshirildi.

Sigirlarning 8 oylik bo'g'ozlik davridan boshlab tug'ishigacha bo'lgan davrda guruhli profilaktik tajribalari o'tkazildi. Tajribalar uchun har birida 15 boshdan bo'lgan uchta guruh tashkil etildi. 1-guruhga xo'jalik ratsioniga Ronomix premiksidan kuniga 150 g miqdorda qo'shib berildi, 2-guruhga Novamix premiksidan kuniga 350 g miqdorda qo'shib berildi, 3-nazorat guruhi xo'jalik ratsioni asosida oziqlantirildi. Tajribalarning boshida va 30-kunida klinik va gematologik tekshirishlar o'tkazildi.

«Hikmatov Bunyod» MChJda tajriba va nazorat guruhlaridagi sigirlarda klinik-fiziologik ko'rsatkichlar umumiy holsizlanish, shilliq pardalarning oqarishi (anemiya), tananing bo'yin, ko'z atrofida junlar to'kilishi (alopetsiya), teri qoplamasi va tuyoqlar yaltiroqligining pasayishi kabi mineral moddalar almashinuvi buzilishlariga xos klinik belgilar nomoyon bo'lib, tajribalarning oxirida birinchi va ikkinchi tajriba guruhida bu belgilarning kamayishi ammo nazorat guruhidagi hayvonlarda kuzatilganligi bilan xarakterlandi.

1-tajriba guruhidagi buzoqlarda tajribalar boshida tana harorati 39,7±2,27 °C ni tashkil qilgan bo'lsa tekshirishlarning 90-kunida esa 39,4±1,18 °C ni tashkil qildi, puls soni 1 daqiqada tajribalar boshida o'rtacha 133,4±1,15 martani, oxirida

128,2±2,12 martani tashkil qildi, bir daqiqadagi nafas soni tajribalar boshida o'rtacha 31,6±1,2 martani, oxirida bu ko'rsatkich 28,3±1,6 martani tashkil qildi. 2-tajriba guruhdagi buzoqlarda shunga mos holda tana harorati o'rtacha 39,6±2,7 °C va 39,7±2,61 °C ni, 132,6±3,7 va 132,6±2,11 martani, 32,2±1,3 va 31,6±1,98 martani tashkil qildi.

Nazorat guruhidagi buzoqlarda tajribalar oxiriga kelib 1 daqiqadagi puls va nafas soni mos ravishda 128,6±2,92 va 32,3±1,18 martani tashkil qildi ($P \leq 0,01$). Yuqorida qayd qilingan klinik ko'rsatkichlar 1-tajriba guruhidagi buzoqlarda tajribalar davomida fiziologik meyyorlar darajasida bo'lib, 2-tajriba buruhida bu ko'rsatkichlarning tekshirishlarning boshidagi ko'rsatkichlarga nisbatan tekshirishlarni oxirgi kunlarida yaxshilanishi qayd qilingan bo'lsa nazorat guruhida bu klinik ko'rsatkichlarning fiziologik meyyorlarga nisbatan kam ekanligi tajribalar davomida aniqlandi.

